
Konstitutsiyaviy qonun mazmun-mohiyati o'rganildi

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Bag'dod tuman ixtisoslashtirilgan maktabi o'quvchi va o'qituvchilarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun mazmun-mohiyati va ahamiyati yuzasidan targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Targ'ibot tadbirlarida maktab direktori L.Mamasoliyeva, direktor o'rinbosari M.Yuldashboyev hamda tarix va huquq fanlari o'qituvchisi I.Usmonov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar haqida yig'ilganlarga batafsil ma'lumot berdilar.

Yangilanayotgan Konstitutsiya – yurtimiz va xalqimizning farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos bo'ladi, - dedi maktab direktori Lolaxon Mamasoliyeva.

2023-03-27 16:44:51